

**ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Nargiza TO'XTAYEVA,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti O'zbek adabiyoti va uni
o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, fil.f.f.d., PhD*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877980>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada adabiyot darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosaga kelish malakalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Muammoli savollar orqali o'quvchining faolligi, ijodiy yondashuvi va tahliliy tafakkuri qanday rivojlanishi amaliy misollar asosida ko'rsatiladi.*

***Tayanch so'zlar:** muammoli ta'lim, adabiyot darsi, ijodiy fikrlash, tahlil, savol-javob, samaradorlik, metodika.*

Zamonaviy pedagogika ta'limga faqat bilim berish vositasi emas, balki o'quvchini ijtimoiy va madaniy hayotga tayyorlovchi faol vosita sifatida yondashmoqda. Ayniqsa, badiiy adabiyot fanini o'qitishda o'quvchining estetik idroki, mustaqil tahlil qilish qobiliyati, hayotga san'at nuqtayi nazaridan qarashi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga, ularda mustaqil qaror chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim uzoq tarixga ega, ammo u XX asrga kelibgina ilmiy-nazariy jihatdan bir qadar asoslangan didaktik tizimga aylanib, o'qitish amaliyotiga qo'llana boshlandi. Amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui bolaga tayyor bilim berishga qaratilgan mavjud o'qitish yo'sinini keskin tanqid qilib, o'qitishning o'zgacha modelini taklif qildi. Unda o'qituvchi o'quvchilari faoliyatini shunday tashkil etadiki, ular o'z oldilariga qo'yilgan muammoni yechish asnosida ham bilim oladilar, ham olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rganadilar. Muammoli ta'limning yutuqlari: o'quvchilar bilimni o'z harakatlari bilan mustaqil egallashadi; ularda mahsuldor tafakkurning o'sadi; o'qish faoliyatiga qiziqish kuchayadi; mas'uliyat tuyg'usi qaror topadi. Bu tizimning yetishmovchiliklari esa o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish imkoniyatining ozligi; ko'zda tutilgan o'quv maqsadiga erishish uchun ko'p vaqt sarflanishi; birvarakayiga barcha o'quvchini nazorat qilish imkoniyati yo'qligi kabilarda ko'zga tashlanadi.

Muammoli ta'lim — bu o'quvchi ongida izlanishga turtki bo'ladigan savollarni uyg'otish orqali bilim olishga yo'naltirilgan texnologiyadir. An'anaviy darsda o'qituvchi tayyor ma'lumotni beradi, o'quvchi esa uni qabul qiladi. Muammoli

yondashuvda esa bilim o‘quvchi tomonidan faol izlanish orqali kashf etiladi. Bu esa uning tafakkurini faollashtiradi, shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Masalan, adabiyot darsida muammoli vaziyat yaratish quyidagicha bo‘lishi mumkin:

“Asardagi bosh qahramonning muammosi nimada?”

“Ushbu obraz o‘rnida siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?”

“Muallif ushbu voqeani qanday estetik vositalar orqali ifodalagan?”

Bunday savollar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni o‘z fikrini bildirishga, himoya qilishga va boshqalar fikrini tinglashga o‘rgatadi.

Adabiyot fanining o‘ziga xos jihati shundaki, u ko‘proq hissiy-estetik idrokka tayanadi. Shu sababli bu fanda muammoli ta’limni quyidagi shakllarda qo‘llash samarali bo‘ladi:

Muammoli savol va topshiriqlar asosida tahlil

Asarni o‘rganish jarayonida har bir epizodga savollar berish orqali darsni tahliliy va izlanishga yo‘naltirish mumkin. Masalan:

“Cho‘lponning ‘Kecha va kunduz’ asarida tarixiy va shaxsiy fojialar qanday uyg‘unlashgan?”

Obrazlararo muammoli qarama-qarshiliklarni ochish

“Zaynab va Oybarchin obrazlari orasidagi tafovut nimada? Ularning hayotga qarashi qanday farqlanadi?”

Munozarali bahslar tashkil etish

Darsda bahsli savollar qo‘yiladi:

“Qahramon tanlagan yo‘l to‘g‘ri edimi?”, “Uning harakati axloqiy mezonlarga javob beradimi?”

Rolga kirish, sahnalashtirish

Muammoli vaziyatni sahna orqali tasvirlash, har bir qahramonning pozitsiyasini anglash imkonini beradi.

O‘quvchilar matnni izchil o‘qib, obrazlarga chuqur kirib borib, muammoni mustaqil tahlil qilishga o‘rgansa, ular nafaqat asarni, balki hayotni, inson ruhiyatini anglashga intiladi. Bu esa ularda:

tanqidiy fikrlash,

mantiqiy xulosa chiqarish,

dalil keltira olish,

estetik idrok

kabilarni shakllantiradi.

Shuningdek, o‘quvchilar asar muhitini boshqa fanlar bilan bog‘lab tahlil qila boshlaydilar (tarix, geografiya, psixologiya, axloqshunoslik va h.k.). Bu holat fanlararo integratsiyani ham kuchaytiradi.

Muammoli vaziyatni hosil qilish uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘quv materialidan shunday vaziyatni topa olishi lozim. Ma’lumki, har qanday savol muammo bo‘lib qolmaydi.

Muammo ilmiy savol bo‘lib, u bir necha asosli javoblarga egaligi bilan savoldan farqlanadi. Muammoli ta’limning o‘ziga xos shakllaridan biri “Debat” usulidir. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bunda jamoaning har bir a’zosi o‘zining burch va majburiyatlariga ega bo‘ladi, kim g‘alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o‘qituvchi belgilab beradi. O‘quvchilar bilan debat o‘tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak: 1. Debatlar ko‘p narsaga o‘rgatadi (Chunki debat o‘tkazishdan maqsad faqat g‘alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir). 2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o‘zagi bo‘lib, noto‘g‘ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto‘g‘ri yo‘ldan ketishning oldini oladi) . 3. O‘zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o‘zga o‘quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo‘lsa, uning obro‘cini to‘kish maqsadga muvofiq emas. Chunki debat g‘oyalar va bu g‘oyalarning to‘qnashuvidan iborat). “Debat” usulidan foydalanish uchun, avvalo, haqiqiy debatga loyiq muammo bo‘lishi lozim. “Debat”da o‘rganilayotgan muammoning har ikkala tomoni ham asosli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchini markazga qo‘yadi, ya’ni dars jarayonining asosiy ishtirokchisi o‘qituvchi emas, balki o‘quvchining o‘zi bo‘ladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchida mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va muammoni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Hozirgi davr ta’limida passiv bilim berishdan faol bilim olishga o‘tish muhim hisoblanadi. Aynan muammoli ta’lim texnologiyasi bu o‘zgarishni amalga oshirishda samarali vositadir.

Adabiy matn bilan ishlashda o‘quvchilarning shunchaki voqeani tushunib olishlari emas, balki voqealarning tagida yotgan g‘oya, muammo va muallif nuqtayi nazarini tahlil qila olishlari ta’limning asosiy maqsadidir.

Muammoli yondashuv orqali o‘quvchilar dars davomida faol ishtirok etadi, savollar beradi, o‘z fikrlarini bayon qiladi, bu esa ularning o‘zini anglashiga, dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Adabiyot darslari — bu faqatgina matn o‘qiladigan mashg‘ulot emas, balki inson qalbi, ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, estetik tushunchalar ustida fikr yuritiladigan makondir. Shunday darslarda muammoli yondashuv ayni muddaodir.

Muammoli vaziyatlar o‘quvchini oddiy bilim oluvchidan — muammoni tahlil qiluvchi, yechim topuvchi shaxsga aylantiradi. Bu esa ta’limning zamonaviy maqsadlariga mos keladi.

Dars jarayonida yuzaga keladigan muammolar ustida birgalikda izlanish, bahs-munozaralar orqali fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi, bu esa o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtiradi.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda jamiyatga ijodkor, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijtimoiy faolligi yuqori shaxslar kerak. Bu kabi kompetensiyalarni shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyasi katta ahamiyatga ega.

Adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish zamonaviy o‘quvchini faollikka, izlanishga, ijodkorlikka, bahs-munozaralarga tayyorlaydi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi o‘zini o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shuningdek, muammoli metod o‘quvchilarning adabiy-estetik didini, tahliliy tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bois adabiyot o‘qitishda bu texnologiyani izchil va tizimli tarzda qo‘llash muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi (Adabiyot o‘qituvchilari va talabalari uchun qo‘llanma). - Toshkent.1993.
2. To‘ychiyeva M. Adabiyot darslarida didaktik vositalar. T.:2023. Fan va ta’lim. – 4 b
3. Turaqulova O. Adabiy ta’limda o‘quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. Monografiya Toshkent. 2023.
4. Husanboyeva Q., R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2020.
5. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
6. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma’rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
7. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi misolida)." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
8. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
9. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.